



THE CONCEPT OF HUMAN PERFECTION IN ALISHER NAVOI'S "NASOYIM AL-MUHABBAT"

Adxamjon Otaxanov¹

Namangan State Pedagogical Institute

DOI: 10.5281/zenodo.15772663

Article History	Abstract
Received: 15.05.2025	This article explores Alisher Navoi's Nasoyim al-muhabbat as a profound Sufi work that reflects on the issue of human moral and spiritual perfection. The text examines how the lives and inner experiences of various Sufi saints illustrate a path toward attaining ethical maturity and divine closeness. Key concepts such as divine love, humility, patience, truthfulness, and spiritual purification are presented as essential pillars of personal development. The article highlights the timeless relevance of Navoi's ideas, demonstrating how his teachings contribute to both individual transformation and broader moral education. The ethical-aesthetic significance of Nasoyim al-muhabbat is analyzed in light of contemporary spiritual and educational discourse.
Accepted: 30.06.2025	

Keywords: Alisher Navoi Nasoyim al-muhabbat Sufism Sufi figures Divine love Human perfection Moral maturity Spiritual purification Inner harmony Ideal of the perfect man.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD student in Social Philosophy, Namangan State Pedagogical Institute, Namangan, Uzbekistan

ALISHER NAVOIYNING “NASOYIM UL-MUHABBAT” ASARIDA INSON KAMOLOTI XUSUSIDA ILGARI SURILGAN FALSAFIY QARASHLAR

KALIT SO‘ZLAR/

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

Alisher Navoiy Nasoyim ul-muhabbat Tasavvuf So‘fiylik Ilohiy muhabbat Inson kamoloti Axloqiy yetuklik Ruhiy poklik Ma’naviy tarbiya Komil inson g’oyasi.

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining tasavvufiy-estetik jihatdan yuksak namunasi bo‘lgan “Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi inson kamoloti masalasi tahlil qilinadi. Asarda zikr etilgan so‘fiy va oriflar hayoti, ularning ruhiy tajribalari va Allohga bo‘lgan muhabbatni orqali inson qanday qilib komillikka erishishi mumkinligi yoritiladi. Maqolada inson kamolotining asosiy mezonlari ilohiy muhabbat, sabr, tavoze, ruhiy poklik, axloqiy barkamollik kabi fazilatlar asosida talqin etilgan. Navoiy bu asari orqali nafaqat diniy va tasavvufiy g’oyalarni bayon qiladi, balki o‘quvchini o‘z ruhiy olamiga nazar tashlashga, axloqiy o‘zini tarbiyalashga, komil inson bo‘lish yo‘lida izlanishga undaydi. Ushbu maqola “Nasoyim ul-muhabbat” asarining axloqiy-estetik ahamiyatini ochib beradi va uni zamonaviy ma’naviy tarbiya bilan uyg‘unlashtirib tahlil qiladi.

Kirish. Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti va madaniyati tarixida tengsiz mavqega ega bo‘lgan buyuk mutafakkirdir. U o‘zining serqirra ijodi orqali adabiyot, falsafa, axloqshunoslik, tasavvuf kabi ko‘plab sohalarda chuqur iz qoldirgan. Navoiy ijodining asosiy mazmun-mohiyatini inson va uning ma’naviy olami, komillikka intilishi, ruhiy yuksalishi tashkil etadi. U insonni jismiy mavjudlikdan ko‘ra yuksakroq – ma’naviy barkamollikka erishish yo‘lida izlanishga undaydi. Uning asarlarida faqat tashqi voqealar emas, balki insonning ichki kechinmalari, qalb olamidagi ziddiyatlar, ilohiy muhabbatga bo‘lgan sog‘inch kabi tasavvufiy tushunchalar o‘z ifodasini topgan.

Navoiy tafakkurida komillik — bu shunchaki bilimdonlik yoki dunyoviy yutuq emas, balki qalb pokligi, axloqiy yetuklik, haqiqatparastlik va Allohga chin yurakdan intilish orqali qo‘lga kiritiladigan ruhiy holatdir. Ana shunday yuksak g’oyalarni u o‘zining turli asarlarida, ayniqsa, tasavvufiy ruhda yozilgan “Nasoyim ul-muhabbat” kitobida yuksak badiiy va falsafiy saviyada ifoda etgan. Ushbu asar orqali Navoiy o‘quvchini nafaqat tarixiy so‘fiy shaxslar bilan tanishtiradi, balki ular hayoti va tajribasi misolida insonning komillikka olib boradigan yo‘lini ham ko‘rsatadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da bayon etilgan g’oyalar inson tabiatining ilohiy mohiyatini anglash, ma’naviy o‘zgarishlarga ochiqlik va ruhiy taraqqiyotga bo‘lgan ehtiyoj kabi masalalarni chuqur yoritadi. Asarda komillikka intilish muhabbat orqali amalga oshishi mumkinligi ta’kidlanadi. Zero, ilohiy muhabbat – bu yurakdagi eng sof tuyg‘udirki, u insonni o‘zini anglash, o‘zini tarbiyalash va oxir-oqibat ilohiy haqiqatga yetishish sari yetaklaydi. Shunday qilib, “Nasoyim ul-muhabbat” nafaqat tasavvufiy asar, balki komil inson g’oyasining badiiy-falsafiy talqinidir.

Asarning umumiy tavsifi. Alisher Navoiy tomonidan yozilgan “Nasoyim ul-muhabbat” asari uning tasavvufiy qarashlarini mujassam etgan eng muhim asarlardan biri sanaladi. Ushbu asar o’z tabiatiga ko’ra tasavvufiy-biografik xarakterga ega bo’lib, unda tarixda muhim iz qoldirgan 772 nafar avliyo, orif va so’fiylarning hayoti, ruhiy tajribalari, Allohga bo’lgan sadoqati va ularning ilohiy muhabbat yo’lidagi izlanishlari bayon etilgan. Asarda har bir siymo o’zining noyob ruhiy holatlari, iymon bilan bog’liq ichki kechinmalari, pokiza niyatlari, hamda sabr va tavozege asoslangan hayotiy tajribalari orqali tasvirlanadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning umumiy ruhiy mohiyatida inson qalbining tozalanishi, uning komillikka intilishi va bu yo’lda muhabbat eng asosiy quvvat manbai ekani alohida ta’kidlanadi. Navoiy bu asarni yaratish orqali o’z davridagi tasavvufiy dunyoqarashlarni birlashtirib, uni ma’naviy tarbiyaning kuchli manbaiga aylantirgan. Har bir hikoya, har bir siymo orqali u inson tabiatining chuqur qatlamlariga kirib boradi va uni Allohga yaqinlashish, ilohiy haqiqatga erishish bilan bog’laydi.

Asarda ilgari surilgan g’oyalardan biri shuki, har bir inson o’z qalbida ilohiy muhabbat urug’ini yetishtira oladi. Faqat bu yo’l sabr, fidoyilik va ichki uyg’onishni talab etadi. Bu jihat bilan “Nasoyim ul-muhabbat” odatiy tarjimai hollar to’plami emas, balki ruhiy kamolot sari yo’naltiruvchi darslik, komil inson g’oyasining ifodasi, va o’z davridan tashqariga chiqa olgan, bugungi kun o’quvchisi uchun ham g’oyaviy-ma’naviy manba bo’la oladigan nodir asardir.

Inson kamoloti tushunchasi. Alisher Navoiy tafakkurida inson kamoloti g’oyasi markaziy o’rin egallaydi. Uningcha, insonning komillikka erishuvi dunyoviy yutuqlar, moddiy boylik yoki rasmiy ilmlar bilan emas, balki qalb pokligi, axloqiy yetuklik, ilohiy muhabbatga oshuftalik, sabr-toqat, fidoyilik va ruhiy uyg’onish orqali yuzaga chiqadi. Kamolot bu — nafaqat o’zini bilish, balki o’zini Alloh yo’lida unutish, o’z “men”idan voz kechib, ilohiy haqiqat bilan birlashishga intilishdir. Bu jarayon tasavvufda “fano” — ya’ni o’zlikni yo’q qilish, “baqo” — Allohda sobit bo’lish kabi holatlar bilan ifodalanadi.

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida bu g’oya yuzlab tarixiy so’fiy siymolar timsolida ochib beriladi. Har bir avliyo, har bir orif o’z hayoti va tajribasi orqali ruhiy kamolot sari intilgan. Jumladan, Bayazid Bistomiy obrazida inson komilligining eng yuksak bosqichlari tasvirlanadi. U o’z ruhiy izlanishlarida Allohga shunchalik oshuftaksi, mavjudlikning o’zini yo’qotishga, “men”ni unutishga, ya’ni “fano” maqomiga erishishga intiladi. Bu orqali Navoiy inson kamolotini nafaqat ong va qalb yuksalishi sifatida, balki butun borliqdan voz kechish orqali ilohiy haqiqatga yetishish yo’li sifatida talqin etadi.

Asarda ta’kidlanishicha, chinakam komillik shunchaki yuksak axloqiy fazilatlar jamlanmasi emas, balki ichki inqilob, o’zini tanish va shu tanish orqali o’zini inkor etishdan iborat murakkab jarayondir. Bu fikr tasavvufning eng chuqur qatlamlari bilan bog’liq bo’lib, Navoiy bu g’oyani o’ta nafis va ruhiyatga singdirilgan uslubda bayon etadi. “Nasoyim ul-muhabbat”dagi har bir hikoya — bu kamolot sari tashlangan ruhiy qadamlarning badiiy-falsafiy izohidir. Navoiy insonni o’z qalbining sirli manzillariga sayohatga chorlaydi va bu sayohatda ilohiy muhabbat asosiy yo’lko’rsatkich bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa. “Nasoyim ul-muhabbat” asari o’zining mazmuni va ma’naviy-falsafiy yondashuvi bilan Alisher Navoiy ijodining eng yuksak cho’qqilaridan biridir. Bu asar nafaqat tarixiy so’fiy shaxslar haqidagi tarjimai hollardan iborat, balki insoniyat uchun muqaddas bo’lgan komillik, axloqiy poklik va ilohiy muhabbat yo’lidagi izlanishlarning badiiy-falsafiy aksidir. Navoiy ushbu asar orqali o’quvchini o’zini anglashga, qalbining chuqur qatlamlariga nazar tashlashga, ruhiy o’zgarishlarga ochiq bo’lishga da’vat etadi. U inson hayotining chinakam ma’nosи – Allohga muhabbat orqali yuksalish, o’z nafsiyi tiyish, sabrli va tavoze’li bo’lish, atrofdagilarga mehr bilan qarashda ekanini ta’kidlaydi.

“Nasoyim ul-muhabbat”da bayon etilgan g’oyalar zamonaviy inson uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda insoniyat moddiy ne’matlar ortidan quvish bilan ovora bo’lgan bir paytda, bu asar ma’naviy tozalikka, qalb osoyishtaligiga va ichki uyg’onishga bo’lgan ehtiyojni yana bir bor eslatadi. Asar har bir insonni o’z ichki olamiga safar qilishga undaydi, komil inson bo’lish sari yo’l ko’rsatadi. Shu ma’noda, “Nasoyim ul-muhabbat” – bu faqat o’tmis yodgorligi emas, balki bugun uchun ham dolzarb bo’lgan ma’naviy-ma’rifiy yo’l xaritasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis: 4 kitob. 1-k. AlJomi’ as-Sahih (Ishonarli to’plam). – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1991. – B. 133
2. Kerimov G.M. Al-Gazali i sufizm. – Baku: Elm, 1969. – S. 32.
3. Бертельс Э.Э. К. вопросу о мировоззрении Наваи // Наваи и Джами. Избр.труды. том-4. –М.: 1965. С. 447.
4. Abdurahmon Jomiy. Lavoyih. O’zR FA SHI, qo’lyozma № 503.
5. Ramazonov N. “Nasoyim ul-muhabbat” va uning manbalari // O’zbek tili va adabiyoti, 2001. №1. – B. 14–19.